



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очиллов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**DEMOGRAFIK OMILLAR VA BANDLIK SAMARADORLIGI O‘RTASIDAGI
MUNOSABATLAR**

**ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ДЕМОГРАФИЧЕСКИМИ ФАКТОРАМИ И
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬЮ ТРУДА**

**RELATIONSHIP BETWEEN DEMOGRAPHIC FACTORS AND EMPLOYMENT
PRODUCTIVITY**

Rahmatullayeva Dilbar Olimovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy iqtisodiy nazariya va empirik yondashuvlar asosida keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholi sonining o‘shish sur‘atlari, yosh-jins tarkibi, mehnatga layoqatli aholi ulushi, demografik yuklama koeffitsiyenti, tug‘ilish va o‘lim darajasi hamda ichki va tashqi migratsiya jarayonlarining mehnat bozori va bandlik samaradorligiga ta’siri chuqur o‘rganiladi. Demografik jarayonlarning bandlik darajasi, mehnat unumdorligi va ish bilan ta’minlanganlik sifatiga ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: demografik omillar, bandlik samaradorligi, mehnat bozori, mehnat resurslari, aholi tarkibi, demografik yuklama, iqtisodiy samaradorlik.

В статье проводится расширенный анализ взаимосвязи между демографическими факторами и эффективностью занятости на основе современных экономических теорий и эмпирических методов исследования. В рамках исследования рассматривается влияние динамики численности населения, возрастно-половой структуры, доли трудоспособного населения, коэффициента демографической нагрузки, показателей рождаемости и смертности, а также внутренних и внешних миграционных процессов на функционирование рынка труда и эффективность занятости.

Ключевые слова: демографические факторы, эффективность занятости, рынок труда, трудовые ресурсы, структура населения, демографическая нагрузка, экономическая эффективность.

This article provides a comprehensive analysis of the relationship between demographic factors and employment efficiency based on modern economic theories and empirical approaches. The study examines the impact of population growth dynamics, age and gender structure, share of the working-age population, demographic dependency ratio, fertility and mortality rates, as well as internal and external migration processes on labor market performance and employment efficiency. The mechanisms through which demographic changes influence employment rates, labor productivity, and job quality are theoretically substantiated.

Keywords: demographic factors, employment efficiency, labor market, labor resources, population structure, demographic dependency ratio, economic efficiency.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada O‘zbekistonda “O‘zbekiston—2030” [1] strategiyasining “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish va barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi

farovonligini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Mehnat resurslarining shakllanishi va ularning miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlari esa, avvalo, demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni [2] bilan 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi belgilangan bo'lib, bu aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, yashash darajasi va farovonligini baholash tizimini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Demografik omillar, xususan aholi sonining o'sish sur'atlari, yosh va jins tarkibi, mehnatga layoqatli aholi ulushi, demografik yuklama darajasi, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari hamda migratsiya jarayonlari mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarning o'zgarishi bandlik darajasi, ish o'rinlariga bo'lgan talab va taklif nisbatlari, mehnat unumdorligi hamda bandlik sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, demografik jarayonlar iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda demografik o'zgarishlar va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yanada murakkablashib bormoqda. Aholining tez o'sishi yoki, aksincha, demografik qarish jarayonlarining kuchayishi bandlik samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin bo'lsa-da, yetarli ish o'rinlari yaratilmagan sharoitda bu holat ishsizlik va norasmiy bandlikning ortishiga olib keladi. Shu sababli demografik omillarni iqtisodiy siyosat, xususan bandlik siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasi aholi o'sishi nazariyalaridan boshlab, zamonaviy mehnat bozori va inson kapitali konsepsiyalarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Ilk iqtisodiy nazariyalarda demografik jarayonlar iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilingan. Klassik iqtisodiy maktab vakillaridan biri bo'lgan Adam Smith o'zining mashhur "Xalqlar boyligi" [3] asarida mehnat taqsimoti va aholi o'sishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. U aholi sonining ortishi mehnat resurslarini ko'paytirishini va bu iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini asoslab bergan.

Keyingi davr tadqiqotchilaridan Gari Beker inson kapitali nazariyasini rivojlantirib, "Inson kapitali: nazariy va empirik tahlil" [4] asarida ta'lim, sog'liq va malaka darajasi bandlik samaradorligining asosiy omillari ekanligini asoslab bergan. Uning ishlari demografik omillarni sifat jihatidan tahlil qilishga katta hissa qo'shgan

Demografik tuzilma, xususan aholining yosh tarkibi bandlik samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida ko'plab tadqiqotlarda alohida o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi iqtisodiy o'sish uchun qulay imkoniyat — "demografik dividend"ni yuzaga keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Demografik dividend nazariyasini rivojlantirishda David Blum va Jeffri Williamson muhim tadqiqotlar olib borib, aholining yosh tarkibi o'zgarishi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishini empirik asosda ko'rsatib berganlar. Biroq ushbu dividenddan samarali foydalanish uchun mehnat bozori institutsional jihatdan rivojlangan bo'lishi va bandlik siyosati demografik jarayonlarga moslashtirilishi zarurligi qayd etiladi.

Bundan tashqari, Robert Solou tomonidan ishlab chiqilgan "Solou iqtisodiy o'sish modeli" [5] iqtisodiy o'sish modelida aholi o'sishi kapital bilan qurollanish darajasiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu model demografik jarayonlarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Milliy va xorijiy tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni baholashda faqat alohida ko'rsatkichlar emas, balki demografik, iqtisodiy va institutsional omillarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish talab etiladi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda demografik

jarayonlarning bandlik samaradorligiga ta’sirini mamlakatlar va hududlar kesimida chuqurroq o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy va empirik jihatdan chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy jarayonlarni tizimli va kompleks tahlil qilish tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqotda demografik jarayonlarning mehnat bozori va bandlik samaradorligiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash maqsadida umummilliy, maxsus iqtisodiy hamda statistik tadqiqot usullarining uyg‘unlashgan majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini klassik va neoklassik iqtisodiy ta’limotlar, keynschilik yondashuvi, inson kapitali nazariyasi hamda mehnat bozori institutsional nazariyalari tashkil etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar demografik omillarning mehnat resurslari shakllanishi, bandlik darajasi va mehnat unumdorligiga ta’sirini izohlashda metodologik poydevor bo‘lib xizmat qildi. Xususan, inson kapitali nazariyasi doirasida demografik omillar bandlik samaradorligining sifat jihatlarini belgilovchi muhim determinant sifatida qaraldi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish hamda abstraksiyalash kabi umummilliy usullaridan keng foydalanildi. Analiz usuli orqali demografik omillarning alohida elementlari — aholi soni, yosh tarkibi, mehnatga layoqatli aholi ulushi, demografik yuklama koeffitsiyenti, migratsiya ko‘rsatkichlari bandlik samaradorligiga ta’siri alohida-alohida o‘rganildi. Sintez usuli yordamida esa ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligi va umumiy iqtisodiy ta’siri yaxlit tizim sifatida baholandi. [6]

Empirik tahlil bosqichida statistik va iqtisodiy-matematik usullar qo‘llanildi. Bandlik samaradorligini baholashda bandlik darajasi, mehnat unumdorligi, ishsizlik darajasi, ish bilan band aholining tarkibiy tuzilmasi hamda YAIM o‘sish sur‘atlari kabi ko‘rsatkichlar tanlab olindi. Demografik omillar sifatida esa aholi o‘sish sur‘atlari, yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanish, mehnatga layoqatli aholi ulushi va migratsiya saldosi ko‘rsatkichlari foydalanildi.


Mazkur ko‘rsatkichlar asosida dinamik (vaqt qatori) tahlil va strukturaviy tahlil amalga oshirilib, demografik o‘zgarishlarning bandlik samaradorligiga ta’sir tendensiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni baholash maqsadida korrelyatsion va regressiyaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar demografik ko‘rsatkichlarning bandlik darajasi va mehnat unumdorligiga ta’sir kuchini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik hisobotlari tashkil etdi. Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli manbalardan olingan statistik ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirildi va tanqidiy baholandi.

Metodologik yondashuvning muhim jihati sifatida tizimli yondashuv tamoyili qo‘llanilib, demografik omillar va bandlik samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida qaraldi. Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi tanlangan metodlarning mantiqiy izchilligi, statistik ma’lumotlarning rasmiyligi va mavjud nazariy qarashlar bilan uyg‘unligi orqali ta’minlandi.

Bugungi kunda demografik jarayonlar nafaqat bandlik miqdoriga, balki bandlik samaradorligining sifat jihatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholining yosh tarkibi va ta’lim darajasi mehnat unumdorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lib, inson kapitalining rivojlanishi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari hududlar kesimida mehnat resurslari taqsimotini o‘zgartirib, bandlik samaradorligida hududiy tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi, demografik jarayonlarning mehnat bozoriga ta’sir mexanizmlari ilmiy asosda ochib beriladi hamda bandlik samaradorligini oshirishda demografik omillarni hisobga olish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari demografik va bandlik siyosatini uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1- Rasm. Demografik omillar va bandlik ko‘rsatkichlarining dinamikasi [7]

2019–2023-yillar davomida aholi soni, mehnatga layoqatli aholi ulushi, demografik yuklama koeffitsienti hamda bandlik darajasi dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkichlar demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini beradi.

Avvalo, aholi soni dinamikasiga e‘tibor qaratilsa, 2019-yilda 33,6 mln kishini tashkil etgan aholi soni 2023-yilga kelib 35,8 mln kishiga yetgan. Aholi sonining barqaror o‘shishi mehnat resurslari bazasining kengayishiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayon bandlik samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi uchun iqtisodiyotda yetarli ish o‘rinlari yaratilishini talab etadi. Grafikdan ko‘rinadiki, aholi sonining o‘shishi bandlik ko‘rsatkichlari bilan muvozanatli tarzda kechgan.

Mehnatga layoqatli aholi ulushi 2019-yildagi 59,8 foizdan 2020-yilda 59,2 foizgacha qisqargan bo‘lib, bu davrda bandlik darajasining ham pasayishi kuzatiladi. Biroq 2021–2023-yillarda mehnatga layoqatli aholi ulushi izchil oshib, 60,6 foizga yetgan. Ushbu o‘shish bandlik darajasining barqaror ko‘tarilishi bilan bir vaqtda kechgan bo‘lib, demografik tuzilmaning bandlik samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.


Grafikdagi demografik yuklama koeffitsiyenti dinamikasi alohida e‘tiborga loyiq. 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 0,69 ga yetib, eng yuqori darajada qayd etilgan va aynan shu davrda bandlik darajasi 64,3 foizgacha pasaygan. Keyingi yillarda demografik yuklama koeffitsiyentining 0,64 gacha kamayishi bandlik darajasining 67,5 foizgacha oshishi bilan uyg‘unlashgan. Bu holat iqtisodiy faol aholi zimmasidagi demografik yukning kamayishi bandlik samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Bandlik darajasi ko‘rsatkichlari umumiy tendensiyada ijobiy dinamikani namoyon etadi. 2020-yildagi vaqtinchalik pasayishdan so‘ng, bandlik darajasi izchil ravishda oshib borgan va 2023-yilda eng yuqori darajaga yetgan. Ushbu o‘shish mehnatga layoqatli aholi ulushining ko‘payishi hamda demografik yuklamaning kamayishi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan.

Umuman olganda, grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, demografik omillarning maqbul nisbatda shakllanishi bandlik samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi va demografik yuklama koeffitsiyentining pasayishi bandlik darajasining yuksalishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, demografik siyosatni bandlik siyosati bilan uyg‘unlashtirish, mehnat resurslarini samarali jalb etish va inson kapitalini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

2020–2024-yillar davomida migratsiya saldosini, bandlik darajasi va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aks ettirilgan. Grafik migratsiya jarayonlarining bandlik samaradorligiga bevosita va bilvosita ta‘sirini baholash imkonini beradi.

Avvalo, bandlik darajasi dinamikasiga e‘tibor qaratilsa, 2020-yilda 66,1 foizni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 64,3 foizgacha pasaygan. Keyingi yillarda bandlik darajasi izchil ravishda oshib, 2024-yilda 67,5 foizga yetgan. Mazkur tendensiya mehnat bozorida bosqichma-bosqich barqarorlashuv jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi.



2- Rasm. Migratsiya va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik [8]

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari ham bandlik darajasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. 2020-yilda mehnat unumdorligi 48,5 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 46,1 mln so‘mgacha pasaygan. Biroq 2022–2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich izchil o‘sib, 2024-yilda 56,7 mln so‘mga yetgan. Bu holat mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining ortib borayotganini va ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘shilgan qiymatning oshayotganini tasdiqlaydi.

Grafikda migratsiya saldosini nolga yaqin yoki barqaror holatda aks etgan bo‘lib, bu davrda migratsiya bosimining nisbatan kamayganini anglatadi. Migratsiya saldosining keskin manfiylashmasligi ichki mehnat bozorida ishchi kuchi barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Natijada, bandlik darajasi va mehnat unumdorligining o‘shishi uchun qulay sharoit shakllangan.

Umuman olganda, 2-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, migratsiya jarayonlarining nisbatan barqarorlashuvi bandlik samaradorligi va mehnat unumdorligining oshishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, migratsiya siyosatini bandlik siyosati bilan uyg‘unlashtirish, ichki mehnat bozorida munosib ish o‘rinlarini yaratish hamda qaytib kelayotgan migrantlarning mehnat bozoriga integratsiyasini ta‘minlash bandlik samaradorligini oshirishning muhim omillari hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari demografik omillar bandlik samaradorligining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Aholi sonining o‘shishi, mehnatga layoqatli aholi ulushi, yosh tarkibi, demografik yuklama koeffitsiyenti hamda migratsiya jarayonlari mehnat bozori ko‘rsatkichlariga va bandlik samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Statistik va grafik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi va demografik yuklama koeffitsiyentining pasayishi bandlik darajasining oshishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, iqtisodiy faol aholi zimmasidagi ijtimoiy-demografik yukning kamayishi mehnat bozorida barqarorlikni ta‘minlash va bandlik samaradorligini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu holat demografik tuzilmaning maqbul shakllanishi iqtisodiy samaradorlikning muhim sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonlarining bandlik samaradorligiga ta‘siri murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatdi. Migratsiya saldosining nisbatan barqarorlashuvi ichki mehnat bozorida ishchi kuchining saqlanib qolishiga, bandlik darajasining oshishiga va mehnat unumdorligining yuksalishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tashqi migratsiyaning kuchayishi ayrim tarmoqlarda mehnat resurslari yetishmovchiligini yuzaga keltirib, bandlik samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, yosh tarkibi va inson kapitalining sifati bandlik samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Mehnat bozorida eng yuqori samaradorlik mehnat tajribasi va malakasi yetarli bo‘lgan yosh guruhlarida kuzatiladi. Shu bois, yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlash, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish bandlik samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni hisobga olgan holda olib boriladigan demografik va bandlik siyosatini

uyg‘unlashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish hamda migratsiya jarayonlarini tizimli boshqarish bandlik samaradorligini oshirish va aholi farovonligini ta‘minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-173-sonli Farmoni
2. Smit, A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot. London, 1776.
3. Rikardo, D. Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari. London, 1817.
4. Keyns, J. M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. London: Macmillan, 1936.
5. Bekker, G. S. Inson kapitali: ta‘limga alohida e‘tibor qaratilgan nazariy va empirik tahlil. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti, 1964.
6. Shults, T. V. Inson kapitaliga investitsiyalar. Nyu-York: Free Press, 1971.
7. Solou, R. M. Iqtisodiy o‘shish nazariyasiga qo‘shilgan hissalar. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 1956.
8. Sen, A. Rivojlanish erkinlik sifatida. Oksford: Oxford University Press, 1999.
9. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT). Global bandlik tendensiyalari. — Jeneva, turli yillar.
10. Jahon banki. Bandlik va iqtisodiy rivojlanish: Jahon taraqqiyot hisoboti. Vashington, 2013.